

Namangan viloyatida demografik holat

2025- yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari
va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-yanvar holatiga Namangan viloyatining doimiy aholisi soni **3 190,8** ming kishini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **1,9** foizga ko'paygan. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni **75,7** ming nafarni, vafot etganlar **14,4** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **61,3** ming kishiga teng bo'ldi. Ko'chib kelganlar soni **2 910** kishini va ko'chib ketganlar soni **5 126** kishini, qayd etilgan nikohlar **21,9** mingtani, nikohdan ajralishlar **4,2** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni

3 190,8 *ming kishi*

Tug'ilganlar soni

75,7 *ming kishi*

Vafot etganlar soni

14,4 *ming kishi*

Ko'chib kelganlar

2 910 *kishi*

Ko'chib ketganlar

5 126 *kishi*

Nikohlar soni

21,9 *ming birlik*

Nikohdan ajralishlar soni

4,2 *ming birlik*

II. Doimiy aholi soni


Namangan viloyatida doimiy aholi soni 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra **3 190,8** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **59,1** ming kishiga yoki **1,9** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **2 070,0** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **64,9** %), qishloq joylarda esa **1 120,8** ming kishi (**35,1** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 568,5** ming kishini (**49,2** %), erkaklar esa **1 622,3** ming kishini (**50,8** %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi (1 yanvar holatiga)

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	3131,7	3190,8	101,9
Namangan shahri	713,4	728,0	102,0
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	139,8	142,3	101,8
Kosonsoy	233,1	237,6	101,9
Namangan	197,1	201,1	102,0
Norin	179,1	182,2	101,7
Pop	239,8	243,5	101,5
To'raqo'rg'on	250,7	255,6	102,0
Uychi	237,6	242,4	102,0
Uchqo'rg'on	188,7	191,8	101,6
Chortoq	219,2	223,3	101,9
Chust	291,4	296,7	101,8
Yangiqo'rg'on	241,8	246,3	101,9

Namangan viloyatida 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **428,9** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **8,0** kishiga ortgan (2025-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **420,9** kishi).

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni (1 yanvar holatiga)




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **75,7** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **23,9** promilleni tashkil etdi. Tug'ilishlar sonida 2020-yilning yanvar-dekabr oylaridan 2023-yilning mos davriga qadar barqaror o'sish kuzatilsada, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **6,2** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **14,4** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,5** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming nafarga kamaygan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **75,7** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **39,3** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,9%**), qiz bolalar soni **36,4** ming kishini (**48,1%**) va shahar joylarida **49,4** ming kishini (**65,3%**), qishloq joylarida **26,3** ming kishini (**34,7%**) tashkil etdi.

Viloyatda vafot etganlar soni **14,4** ming kishini, shundan erkaklar **7,8** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **54,2%**), ayollar **6,6** ming kishini (**45,8%**) va shahar joylarida **10,0** ming kishini (**69,4%**), qishloq joylarida **4,4** ming kishini (**30,6%**) tashkil qildi.

Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **21,9** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,9** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,4** ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni **4,2** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,3** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming nafarga ko'paygan.


Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **21,9** ming birlikni, shundan shahar joylarida **14,6** ming birlikni (**66,7%**), qishloq joylarida **7,3** ming birlikni (**33,3%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **4,2** ming birlikni, shundan shahar joylarida **2,9** ming birlikni (**69,0%**), qishloq joylarida **1,3** ming birlikni (**31,0%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2025-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **2 910** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **2 909** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **1** kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni **5 126** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **5 096** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **30** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar (jami)	Ko'chib ketganlar (jami)
Namangan viloyati	2 910	5 126
shahar:		
Namangan shahri	846	1 237
tumanlar:		
Mingbuloq	144	219
Kosonsoy	94	262
Namangan	153	182
Norin	375	512
Pop	224	528
To'raqo'rg'on	122	327
Uychi	258	239
Uchqo'rg'on	120	412
Chortoq	71	291
Chust	298	608
Yangiqo'rg'on	205	309

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
N. Yo'ldashev
69 211-72-00 (50-70)

Manzil:

